

Ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqish va takomillashtirishda hamkorlik

Joriy yilning 29 iyun kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (TPUT) va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish vazirligi huzuridagi Sanoat bozori va ishlab chiqarishdagi mehnat samaradorligini o'rganish markazi yosh olimlarning ta'limini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, o'quv dasturlari, izlanishlar va innovatsiyalarni takomillashtirishda o'zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishildi.

Hamkorlikning maqsadi – tomonlar o'rtasida ta'lim, fan, innovatsiya, mehnat unumdorligini oshirish, yuqori texnologiyali loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, yangi texnologiyalarni sotish va zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratish sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatish.

Uchrashuv davomida tomonlar hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilishdi va uning umumiy yo'nalishlarini belgilab olishdi. Umid qilamizki, tomonlarning birgalikdagi faoliyati ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va takomillashtirishda katta qadam bo'ladi.

